V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ABDULLAYEV ABDUG‘ANI XOLMAMAT O‘G‘LI

DINAMIK SISTEMALAR TRAYEKTORIYALARINI TAQRIBIY HISOBLASH ANIQLIGINI BAHOLOVCHI TENGSIZLIKLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

UDK: 517./91./93

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Abdullayev Abdug‘ani Xolmamat o‘g‘li
Dinamik sistemalar trayektoriyalarini taqribiy hisoblash aniqligini baholovchi tengsizliklar.. 3

Abdullayev Abdugani Kholmamat o‘g‘li
Inequalities for estimating the accuracy of approximate computation of trajectories of dynamical systems………………………………………… 19

Абдуллаев Абдугани Холмамат угли
Неравенства для оценки точности приближённого вычисления траекторий динамических систем……………………………………… 35

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works ………………………………………………… 39

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ABDULLAYEV ABDUG‘ANI XOLMAMAT O‘G‘LI

DINAMIK SISTEMALAR TRAYEKTORIYALARINI TAQRIBIY HISOBLASH ANIQLIGINI BAHOLOVCHI TENGSIZLIKLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/FM1285 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http:ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdulla Azamov** fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Jamilov Uyg‘un Umurovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Axmedov Odiljon Sohibjonovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «09» dekabr soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 216-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» noyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiykengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

R.R.Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiaysi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida matematika sohasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning salmoqli qismi dinamik sistemalar nazariyasini tadqiq qilishga keltiriladi. Dinamik sistemalar nazariyasi masalalarining o‘ta rang-barangligi, deyarli har qadamda murakkab va chuqur muammolarga duch kelinishi, ularni hal qilish differensial tenglamalar nazariyasidan tashqari geometriya, topologiya, funksional analiz, kompyuter texnologiyalari fanlarining usullarini qo‘llashni talab etishi kabi jihatlar bilan izohlanadi. Shuningdek, matematikaning boshqa fanlar va texnikaga tatbiqlari odatda dinamik sistema bilan modellashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli dunyoning yuzlab ilmiy markazlarida dinamik sistemalar va ularning tatbiqlari o‘rganiladi, shu bois ko‘plab aynan shu sohaga oid ilmiy jurnallar chop etiladi.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari sohasida dinamik sistemalar nazariyasi va ularning amaliy masalalarga tatbiqlari keng tadqiq qilinmoqda. Dinamik sistemalar nazariyasining asosiy o‘rganish ob’yekti bu – vaqt o‘tishi bilan holati o‘zgaradigan sistemalar va ulardagi jarayonlardir. Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida dinamik sistemalarga oid masalalarni yechishda kompyuter texnologiyalari muhim ro‘l o‘ynamoqda, hatto bu yo‘nalishda hisoblash dinamikasi (Computational Dynamics) sohasi shakllanib, jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun ushbu sohani tadqiq qilish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda fan va texnika, ayniqsa tabiiy va aniq fanlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bu yo‘nalishda matematika ta’limini takomillashtirish, fan sohasida fundamental tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarish, tadqiqotlar natijalarini amaliyot bilan bog‘lash, turdosh fan yo‘nalishlari va iqtisodiyot sohalarida tatbiqlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha natijalarga erishildi. Xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi, algebra va funksional analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va vazifasi qilib belgilandi[1].

Mazkur dissertatsiya mavzusi va o‘rganish obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir necha hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarga to‘la muvofiqdir, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 20-aprel

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4387-sonli qarori.

PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Shuningdek, mazkur qarorlarni hayotga joriy etishga qaratilgan tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiqdir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hisoblash dinamikasi 1845 yilda J. Adams tomonidan Neptun planetasi orbitasini taqribiy hisoblashdan boshlangan deyish mumkin. 20-asr boshlariga kelib differensial tenglamalar uchun Koshi masalasini taqribiy yechish usullari ishlab chiqish boshlandi (K.D.T.Runge, M.V.Kutta va b.). Bu davrda tadqiqotlar asosan nazariy nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lsa, 20-asr o‘rtalaridan ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashishi sababli differensial tenglamalarni taqribiy yechish bevosita amaliy ehtiyojga aylandi. Dastlabki Runge-Kutta usuli ikkinchi tartibli aniqlikka ega bo‘lsa, M.V.Kutta tomonidan uchinchi va to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi usullar yaratildi. Bu usulning aniqlilik ko‘rsatgichi 10 gacha yetkazildi. Dormandning tadqiqotlarida ayrim sinflarga mansub tenglamalar uchun Runge Kutta usulining samaraliroq variantlari ishlab chiqildi. Bu boradagi tadqiqotlar natijalari J. Butcherning *“The numerical analysis of ordinary differential equations: Runge–Kutta and general linear methods”* monografiyasida batafsil jamlangan.

Tabiiy ravishda taqribiy yechim qay darajada aniq yechimga yaqin bo‘ladi, degan savol tug‘iladi. Chunki amaliy hisoblashlarda differensial tenglamalarning aniq yechimlari ko‘pincha noma’lum bo‘ladi yoki murakkab funksiyalar orqali ifodalanadi. Shunday vaziyatda taqribiy usullar, jumladan, Runge–Kutta kabi sonli usullar qo‘llaniladi. Ammo bu usullar orqali olingan natijalar aniq yechimni qanday aniqlikda aks ettiradi – bu masala har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Taqribiy yechimning aniq yechimga yaqinligi odatda usulning tartibi bilan baholanadi. Masalan, to‘rtinchi tartibli Runge–Kutta usuli yechim xatoligini $O(h^4)$ tartibida baholaydi, bu esa qadam uzunligi h kichik bo‘lsa, juda yuqori aniqlikni kafolatlashini bildiradi.

Hisoblash dinamikasida yangi davr determinstik xaos kashf etilishidan boshlandi. E. N. Lorenz va O. E. Rossler kabi olimlarning ishlari – mos ravishda Lorenz sistemasi va Rossler sistemasi – deterministik, lekin oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan (ya’ni xaotik) sistemalarning mavjudligini isbotladi. Bu kashfiyotlar 1970–1980-yillarda hisoblash dinamikasi va xaos nazariyasining jadal rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

1970 yillarda AQSHlik matematik J. Gukkenheimer “hisoblash dinamikasi” atamasini kiritdi. Ayni paytda u taqribiy hisoblash usullarini dinamik sistemalarning sifat nazariyasiga qo‘llash masalasini qo‘ydi. Avvalroq bu g‘oya A. A. Andronov, W. Gordon, M. A. Leontovich va M. G. Mayerning “Tekislikdagi dinamik sistemalarning sifat nazariyasi” monografiyasida eslatib o‘tilgan edi. Bu g‘oya L. P. Cherkas, L. A. Pchelintsev va boshqa matematiklar tomonidan ayrim masalalarga qo‘llandi. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, barcha tadqiqotlarda asosan taqribiy yechim bilan vaqtni diskretlashtirish natijasida hosil bo‘ladigan diskret tenglama yechimi o‘rtasidagi farqni baholash masalasi qaralgan. Amalda esa diskret tenglama yechimi ham taqribiy hisoblanadi. Bunda xatolik hisoblashlarni yaxlitlash natijasida vujudga keladi. Bu ikki tur xatolik ma’lum ma’noda bir-biriga zid – taqribiy yechim qadami qancha kichik bo’lsa, birinchi tur xatolik shuncha kichiklashadi, ikkinchi tur xatolik esa aksincha o‘sadi. Bunda har ikki xatolik yig‘indisining eng kichik qiymati musbat son bo‘lib (“noaniqlik prinsipi”), taqribiy yechish usuli va qo‘llanadigan compyuter quvvatiga bog‘liq. Hisoblash dinamikasining samaradorligi ana shu kattalik bilan belgilanadi. Shuning uchun taqribiy yechim xatoligini aniq topish muhim ro‘l o‘ynaydi. A. Azamov va O. Ahmedov ishlarida quyi tartibli Runge-Kutta usullari uchun aniq tegishli ifodalar topilgan.

Dissertatsiyada mazkur masala Teylor formulasiga asoslangan taqribiy yechish usullari uchun amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti ilmiy tadqiqot rejasidagi “Dinamik jarayonlarning matematik modellari va ularning tatbiqlari” (2020-2025 yillar) mavzusidagi tadqiqot dasturlari bo‘yicha va FL-9524115148 raqamli “Dinamik sistemalarda topologik, optimal va raqamli usullar hamda ularning matematik modellashtirishga tatbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihasida (2025 yil) olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi oddiy differensial tenglamalar bilan berilgan Koshi masalasi uchun Teylor formulasiga asoslangan past tartibli taqribiy yechish usullarining xatoliklarini baholovchi aniq tengsizliklarni keltirib chiqish hamda ushbu baholovchi tengsizliklar koeffitsiyentlari uchun oshkor formulalarni topishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

Liuvill tenglamasini taqribiy yechimi bilan bog‘liq polinomial uchburchak qurish;

Avtonom differensial tenglamalar sistemasi uchun Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimning xatoligini baholash;

Noavtonom differensial tenglamalar sistemalari uchun Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimning xatoligini baholash;

Tadqiqotning ob’ekti: oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining yechimini taqribiy hisoblash usullarining aniqligini baholovchi tengsizliklar va dinamik sistemalar trayektoriyalarini taqribiy hisoblashning Teylor formulasiga asoslangan usullarining aniqligini ko‘rsatuvchi tengsizliklar.

Tadqiqotning predmeti. Chiziqsiz differensial tenglamalar, integrallanmaydigan dinamik sistemalar, Koshi masalasini taqribiy yechish usullari, Teylor formulasiga asoslangan taqribiy yechish sxemalari, taqribiy yechim xatoligini baholovchi tengsizliklar, baholash tengsizliklaridagi koeffitsiyentlar uchun aniq formulalar.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot ishida funksional analiz, oddiy differensial tenglamalar, matematik fizika tenglamalari, hisoblash matematikasi, differensial geometriya, dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Liuvill tenglamasi yechimining hosilasi uchun polinomial uchburchak hosil qilingan va bu yordamida rekurrent ifoda qurilgan;

avtonom differensial tenglamalar sistemasining aniq yechimi bilan Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimlari orasidagi xatolikni baholovchi tengsizlik isbotlangan va bu tengsizliklardagi koeffitsiyentlarning qiymatlari topilgan;

noavtonom differensial tenglamalar sistemalarining aniq yechimi bilan Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimlari orasidagi xatolikni baholovchi tengsizlik isbotlangan hamda ushbu tengsizliklardagi koeffitsiyentlarning qiymatlari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan yangi natijalardan va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullardan dinamik sistemalar nazariyasida va ayniqsa dinamik sistemalar nazariyasining texnik masalalarga tatbiqlarida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Barcha natijalar matematikada qabul qilingan qat’iy deduktiv mushohadalar bilan asoslangan, ular qat’iy tengsizliklar tarzida bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dinamik sistemalarning taqribiy yechish usullarini rivojlantirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dinamik sistemalarni tadqiq etishning sifat nazariyasi masalalarini yechishdagi muhim ro‘li bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dinamik sistemalar trayektoriyalarini taqribiy hisoblash aniqligini baholovchi tengsizliklar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

avtonom sistema uchun Koshi masalasini Teylor formulasiga asoslangan uchinchi tartibli taqribiy yechish usulining aniqligini bahovlovchi tengsizliklardan AUA-UAEU-12S141 raqamli “Pantograf tipidagi kechikishli differensial tenglamalarining sonli yechimlari” mavzusidagi xorijiy loyihada stoxastik pantograf kechikish differensial tenglamalarini yechimini o'rtacha kvadrat va kuchli yaqinlash tartiblarini aniqlashda foydalanilgan (Birlashgan Arab amirliklari Universitetining 2025 yil 24-avgustdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijani qo‘llanilishi Teylor formulasi asosidagi yondashuvning an’anaviy Runge–Kutta usuli bilan taqqoslanishi yechimlarning aniqligini oshirish, xato bahosini qat’iy belgilash va sonli yaqinlashish usullarini yanada takomillashtirish imkonini bergan;

noavtonom differensial tenglamalar sistemalari uchun Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimning xatoligini baholash bo‘yicha olingan natijalar UZB-Ind-2021-87 raqamli “Li simmetriyasi tahlili, giperbolik sistemalarning Lyapunov bo‘yicha turg‘unligini modellashtirish va tahlil qilish” mavzusidagi fundamental loyihada sistemalarning turg‘unligini tahlil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Universitetining 2025 yil 16-oktyabrdagi №04/11-22965-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi dinamik sistemalarni turg‘unligini o‘rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 83 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAVZUSI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini asoslash maqsadida dalillar bayon qilingan bo‘lib, ravishda tahlil qilingan bo‘lib tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon etilgan, tadqiqotda olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ham batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechishning taqribiy usullari”** deb nomlanuvchi birinchi bobining birinchi bo‘limida dissertatsiya tadqiqotida qo‘llangan asosiy tushunchalar, keng tarqalgan taqribiy yechish usullari haqidagi ixcham ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Sistema holatining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishining matematik modeli odatda dinamik sistema orqali ifodalandi. Dinamik sistema tushunchasi matematik ob’ekt sifatida birinchi marta A. Puankare asarlarida shakllangan, keyinchalik esa J. Birkgof, Danjua va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Dinamik sistemalar nazariyasini avtonom differensial tenglamalar sistemasi sifatida o‘rganilishida A.A. Andronov rahbarligidagi ilmiy maktab katta hissa qo‘shgan bo‘lib, bu maktabga oid ko‘plab natijalar monografiyalarda jamlangan. Bu ishlarda, asosan, tekkislikdagi (ikki o‘lchamli) dinamik sistemalar ko‘rib chiqilgan.

Bizga

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y) \tag{1.1}$$

sistema berilgan bo‘lsin. Bunda f_k funksiyalar $\mathbb{R}^{d+1}$ o‘lchovli fazoning biror D sohasida berilgan va yetarlicha tartibgacha xususiy hosilalari mavjud va uzluksiz degan shartni qanoatlantiradi. (1) sistema tayin $(x_0, y_0) \in \mathbb{R}^{d+1}$ nuqtadan o‘tuvchi yagona yechimga ega. Uni $y_\alpha(x)$ deb belgilaylik. Amalda $y_\alpha(x)$ kamdan-kam holda aniq topiladi. Shuning uchun taqribiy yechish usullarini qo‘llab taqribiy $y_t(x)$ topiladi. Hoh nazariy masalalar bo‘lsin, xoh amaliy masalalar, $y_t(x)$ qay darajada $y_\alpha(x)$ yechimga yaqin degan savol muhim. Agar har ikki funksiya tayin $k \in [x_0; x_*]$ kesmada mavjud bo‘lsa, u holda

$$\max_{x_0 \le x \le x_*} |y_\alpha(x) - y_t(x)| \le C \frac{e^{M_1(x_* - x_0)} - 1}{M_1} \tag{1.2}$$

ko‘rinishidagi baho o‘rinli bo‘ladi. Bunda M_1 Lipshits konstantasi, $C-$ taqribiy yechish usuliga bog‘liq konstanta. Taqribiy yechish usullari juda xilma-xil bo‘lib, amalda bir qadamli usullar keng qo‘llaniladi. Bunda $[x_0; x_*]$ kesmada h qadam bilan $[x_0, x_1, x_2, x_N = x_*]$ ajratiladi. Agar $h = \max\limits_{K}[x_k - x_{k-1}]$ bo‘lsa, biror natural s uchun $C = ch^s$ ifoda keltirib chiqariladi. Unda s taribiy yechish usulining aniqlik tartibi(darajasi) deyiladi, c esa funksiya va D sohaga hamda yechish usuliga bog‘liq konstanta.

Taqribiy yechish usullariga bag‘ishlangan adabiyotda (1.2) formula va $C = ch^s$ ifoda keltiriladi, ammo c koeffitsient uchun formula berilmaydi. Bunda odatda c ning qiymati $\dfrac{e^{M_1[x_* - x_0]} - 1}{M_1}$ ga nisbatan juda kichik degan evristik mulohaza bilan cheklaniladi. A.Azamov va shogirdlarining tadqiqotlari ko‘rsatadiki, bu mulohaza asosga ega emas. Qolaversa, nazariy masalalarda

$$\max_{x} |y_\alpha(x) - y_t(x)|$$

kattalik uchun aniq baho chiqarish muhim.

Bir qadamli taqribiy yechish usullaridan eng ko‘p qo‘llanadigani – bu Runge-Kutta usullaridir. Bu usulda $f(x,y)$ funksiyaning qiymatlari hisoblanadi, ammo hosilalarining qiymatlaridan foydalanilmaydi. Uzoq vaqt davomida bu qulay sanalgan. Ulardan farqli Teylor formulasiga asoslangan usullarda $f(x,y)$ ning hosilalari ham hisoblanadi. Bugun formulalar ustida amallar bajara oladigan dasturlar mavjud, ayniqsa, sun’iy intellect yaratilgan zamonda $f(x)$ ning hosilalarini hisoblashni avtomatlashtirish mumkin. Dissertatsiyada Teylor formulasiga asoslangan usullar qaralishi shu bilan izohlanadi. Bunda Teylor formulasiga asoslangan usullar boshqa afzalliklarga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Chunonchi bu usullarda C konstantani topish sezilarli darajada o‘ng‘ay.

Shunday qilib, Runge-Kutta sxemalarida faqat f funksiyaning qiymatlari hisoblanadi, Teylor formulasida esa uning hosilalari ham hisoblanadi.

Teylor formulasiga asoslangan sxemalarni ikkita afzalligi bor:

birinchidan, istalgan aniqlikdagi sxemalar qurish mumkin va bu ishni kompyuterda bajarish mumkin;

ikkinchidan, C koeffitsient qiymatlarini topish sezilarli darajada yengil. Dissertatsiya asosan ikkinchi, uchunchi va to‘rtinchi tartibli Teylor sxemalari uchun C koeffitsient uchun oshkor qiymat topishga bag‘ishlangan.

Taqribiy yechim aniqligini baholash masalasi sonli usullarga bag‘ishlangan adabiyotda u yoki bu darajadagi tafsilotlar bilan yoritiladi. Bu yerda keng tarqalgan bir necha monografiya ustida to‘xtalamiz. Kamke ma’lumotnomasida va Сансоне-II kitobida xatoni baholash masalasi qaralmagan. Lambert, Kendal Atkinson, Бабенко, Hairer.E., Norsett.S va Wanner.G monografiyalarida faqat Runge-Kutta usullari qaralgan. Baxvalov fundamental monografiyasining III qismi oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullariga bag‘ishlangan. Jumladan, bu qismning 1- paragrifida Teylor usuli metodologik nuqtai nazardan muhokama qilingan. Крилов. В.И., Бобков. В.В., Монастырный. П.И. Вычислительные методы monografiyasi II qismining 2-paragrifida Teylor usuliga to‘xtalib o‘tilgan, ammo xatoni baholash masalasi qaralmagan. Unda taqribiy yechim sxemasi hosil qilishda Teylor formulasini dastlabki n ta hadi olinsa, hatolik

$$\max_{0\le n\le N}\left|x_n - y(x_n)\right| = O(h^n)$$

bo‘lishini ta’kidlash bilan cheklanilgan.

Oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari bo‘yicha eng batafsil monografiya bo‘lgan Butcher kitobida aniq va taqribiy yechim orasidagi farq aniq yechim Teylor formulasining qoldiq hadi bilan baholanishi aytilib, bu had bir qadamda $O(h^{p+1})$ bo‘lishi takidlangan, xolos. Milne kitobida xatoni baholash masalasi

$$x(t+h) = x(t) + \int_t^{t+h} f[x(t)]dt$$

formulada integralni taqribiy hisoblashga asoslangan usullar uchun qaralgan va oshkor tengsizlik isbotlangan. Bu Teylor formulasining birinchi hadini qarashga teng kuchli, yuqori hadlarga asoslangan usullar esa qaralmagan. Bu kitobning keyingi bobida esa ko‘p qadamli taqribiy yechish usullari uchun hatolikni baholash o‘rganilgan, ammo

$$\sup_{0\le t\le T}\left|x_*(t) - \tilde{x}(t)\right| \le Ce^{LT}h^s$$

ko‘rinishdagi tengsizlik keltirib chiqarilmagan.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida palinomial ko‘phad qurish masalasi ko‘rib o‘tilgan.

Differensial tenglamani taqribiy yechish tushunchasi bir necha xil talqin etilishi mumkin. Bulardan eng keng tarqalgani – Koshi masalasini sonli yechishdan iborat. Amaliyotda asosan shu talqinga mos ish tutiladi. Nazariy masalalarda esa yechimning taqribiy analitik ko‘rinishini izlash ham katta o‘rin tutadi. Matematikaning bus-butun sohasi bo‘lmish maxsus funksiyalar(Bessel, gipergeometrik va hakazo) aynan shu talqinga muvofiq vujudga kelgan.

Mutlaq ko‘pchilik holda analitik taqribiy yechim ko‘phad ko‘rinishida izlanadi. Dissertatsiyaning asosiy natijalarini tayin misolda - “Liuvill tenglamasi” ko‘rilar ekan analitik taqribiy yechim bilan bog‘liq polinomial uchburchak hosil qilindi. Bu yerda shu natija bayon qilinadi.

Liuvill tenglamasi $y''+xy=0$ ko‘rinishida bo‘lib, y chekli qadamlarda yechilmaydi - bu J.Liuvill tomonidan isbotlangan va integrallab bo‘lmasligi isbotlangan birinchi namunadir.

Shu maqsadda

$$y'_n(x)=a_n(x)y_n(x)+b_n(x)y_{n-1}(x)+c_n(x),\ \ n=0,1,2,... \tag{1.3}$$

ko‘rinishidagi rekurrent-differensial tenglamalar cheksiz sistemasiga keltirish mumkinligi yaxshi ma’lum, bunda $y_0(x)$ berilgan deb qaraladi. Bu sistemada no’malumlar birin-ketin integrallash yo‘li orqali hisoblanadi. Amaliyotda (1.3) sistemadan farqli

$$P_{n+1}^k(x)=a_n{}^k(x)P_n^{k+1}(x)+b_n{}^k(x)(P_n^k)'+c_n{}^k(x)P_n^{k-1}(x) \tag{1.4}$$

ko‘rinishdagi tenglamalar sistemasiga keltiriladigan masalalar uchraydi. Xususan, $a_n{}^k(x)=(k+1)x,\ \ b_n{}^k(x)=1,\ \ c_n{}^k(x)=k-1$ bo‘lgan hol Liuvill tenglamasi uchun kombinatorik masalaga tengkuchli. Bu yerda $P_n{}^k(x)$ ko‘phadlardan iborat bo‘lib, ular binomial koeffitsientlar kabi uchburchak hosil qiladi.

(1.4) formuladan

$$P_{n+1}^n(x)=(n+1)!x+(n-1)P_n{}^{n-1}(x),\ \ P_{n+1}^{n-1}(x)=\left(P_n{}^{n-1}(x)\right)'+(n-2)P_n{}^{n-2}(x),$$

$$P_{n+1}^k(x)=(k+1)xP_n^{k+1}(x)+(P_n^k)'+(k-1)P_n^{k-1}(x),\ \ P_{n+1}^1=\left(P_n{}^1(x)\right)'+2xP_n{}^2(x),$$

$$P_{n+1}^0(x)=\left(P_n{}^0(x)\right)'+xP_n^1(x)$$

tengliklarga ega bo‘lamiz, agarda

$$P_n^k(x)=\begin{cases}0, & k<0\\ 0, & k=n\\ n!, & k=n+1\end{cases}$$

bo‘lsa $(n=0,1,2,...,k=0,1,2,...)$.

Endi $y''+xy=0$ tenglamaga qaytaylik. Uning yechimi elementar funksiyalar orqali, ular ustida algebraik amallar va integrallash amali bilan ifodalanmaydi (J.Liuvill teoremasi). Bu tenglama

$$z'(x)=x+z^2(x) \tag{1.5}$$

Rikkati tenglamasiga tengkuchli.

1-teorema. (1.5) tenglamaning yechimi $z(x)$ uchun

$$z^{(n)} = n!z^{n+1} + \sum_{k=0}^{n-1} P_n^k(x) z^k$$

formula o‘rinli.

Dissertatsiyaning “**Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimining xatoligini avtonom sistemalar uchun baholash**” nomli ikkinchi bobida dinamik sistema uchun Koshi masalasini Teylor formulasiga asoslangan ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi tartibli taqribiy yechish usulining aniqligini baholash masalasi ko‘rib o‘tilgan.

Ushbu

$$\dot{x}(t) = f(x(t)), \quad x(0) = \xi \tag{2.1}$$

ko‘rinishidagi Koshi masalasining sonli usullarda yechilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. (2.1) –bu dinamik sistema bo‘lib, $x = (x_1, x_2, ..., x_n)$ - vektor-funksiya, $t \in \mathbb{R}$, ξ - berilgan boshlang‘ich nuqta. $f(x) = (f_1(x), f_2(x), ..., f_n(x))$ funksiya $\mathbb{R}^d$ fazoning biror D sohasida aniqlangan va yetarlicha marta differensiallanuvchi deb hisoblanadi.

Agar $x_*(t)$ — (2.1) Koshi masalasining aniq yechimi, x_n esa $t = t_n$ nuqtadagi taqribiy yechimi bo‘lsa, u holda sonli usulning aniqlik darajasi quyidagi tengsizlik orqali baholanadi:

$$\sup_n \left| x_*(t_n) - x_n \right| \le C(\sup_n \left| t_n - t_{n-1} \right|)^k (n = 1, 2, ...), \tag{2.2}$$

bu yerda $k-$ usulning aniqlik darajasi (ya’ni tartibi), $C-$o‘zgarmas son. Hisoblash matematikasida (2.1)-masalani sonli yechish uchun turli xil usullar ishlab chiqilgan va hozirgacha ishlab chiqilishi davom etmoqda. Bular qatoriga Runge–Kutta usullarining turli modifikatsiyalari, Adams usullari , chekli ayirma (ya’ni, farqli) usullari, neyron tarmoqlar yordamida yechish usullari va boshqalar kiradi.

Har doim usulning aniqlik darajasini baholovchi tengsizlikni chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bu esa (2.1.2) tengsizlikdagi k va C kabi konstantalarni aniqlashga tengdir.

Mazkur bobda Teylor formulasi asosidagi sonli integrallash usuli ko‘rib chiqiladi. Unda usulning xatosi faqatgina Teylor formulasining qoldiq hadi bilan emas, boshqa omillar bilan ham bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. So‘ngra, aniq va taqribiy yechimlar orasidagi farqni yuqoridan baholovchi tengsizlik shakllantiriladi va isbotlanadi. $x_*(t)$— (2.1) - masalaning aniq yechimi bo‘lsin (kelgusida $\tilde{x}(t)$ ifodasi (2.1)-masalaning taqribiy yechimini anglatadi), J esa $x_*(t)$ yechim mavjud bo‘ladigan o‘ng yarim interval bo‘lsin.

Faraz A. Izlanayotgan $x_*(t)$ yechim $[0;T]$ oraliqda mavjud bo‘lsin.

Odatda, sonli integrallash deganda $x_*(t)$ yechimning qiymatlarini to‘r nuqtalarida ya’ni $\{t_0 = 0 < t_1 < t_2 < ... < t_N = T\}$ to‘plamida topish tushuniladi. Biz faqat bir xil oraliqli tarmoqqa e’tibor qaratamiz, ya’ni $t_n = nh,\ h = \frac{T}{N}$. Mazkur ishda Teylor formulasi asosida qurilgan bir qadamli sonli usul ko‘rib chiqiladi:

$$x_*(t+h) = x_*(t) + h\dot{x}_*(t) + \frac{h^2}{2}\ddot{x}_*(t) + ... + \frac{h^m}{m!}x_*^{(m)}(t) + R_m,$$

bu yerda qoldiq had quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:

$$R_m = \frac{1}{m!}\int_t^{t+h}(t-s)^m x_*^{(m+1)}(s)ds$$

Qoldiq hadni e’tiborga olmasdan, taqribiy yechimning qiymatlarini hisoblash uchun quyidagi bir qadamli sonli usulni hosil qilamiz:

$$x_*\left[(n+1)h\right] \approx x_*(nh) + h\dot{x}_*(nh) + \frac{h^2}{2}\ddot{x}_*(nh) + \cdots + \frac{h^m}{m!}x_*^{(m)}(nh), \qquad (2.3)$$

bu yerda yechim hosilalari f funksiya va uning hosilalari orqali ifodalanadi:

$$\dot{x}_*(nh) = f\left[x_*(nh)\right],$$

$$\ddot{x}_*(nh) = f'\left[x_*(nh)\right]f\left[x_*(nh)\right],$$

$$\dddot{x}_*(nh) = f''\left[x_*(nh)\right]f\left[x_*(nh)\right]f\left[x_*(nh)\right] + f'\left[x_*(nh)\right]f'\left[x_*(nh)\right]f\left[x_*(nh)\right].$$

(2.4)

Eslatib o‘tamiz, agar (2.1)-masalada biz sistema bilan ish olib borayotgan bo‘lsak, ya’ni $x \in D \subset \mathbb{R}^d,\ f: D \to \mathbb{R}^d$ va $d \geq 2$, u holda $f'(x)$ — bu d-o‘lchamli chiziqli akslantirish (ya’ni, (1, 1)-rangli tenzor) bo‘lib, $\mathbb{R}^d$ ning standart bazisida $\left(\frac{\partial f_i}{\partial x_j}\right)$ Yakobi matritsasi yordamida ifodalanadi. Shuningdek, $f''(x)$ — bu d-o‘lchamli bichiziqli akslantirish yoki $(1, 2)$-rangli tenzor bo‘lib, uning komponentlari quyidagicha ifodalanadi: $\left(\frac{\partial^2 f_i}{\partial x_j \partial x_k}\right); i, j, k = 1, 2, ..., d.$ Shunga o‘xshash talqinlar f funksiyaning undan yuqori tartibli hosilalari uchun ham qo‘llaniladi.

Keyingi o‘rinlarda masalaning mohiyatini murakkab formulalar orqali ifodalamaslik uchun har bir qadamda uchinchi tartibli aniqlikka ega usulni ko‘rib chiqish bilan cheklanamiz:

$$x_*\left[(n+1)h\right] \approx x_*(nh) + h\dot{x}_*(nh) + \frac{h^2}{2}\ddot{x}_*(nh).$$

Agar $x_{*n} = x_*(nh)$ deb belgilasak, u holda:

$$x_{*(n+1)} \approx x_{*n} + hf(x_{*n}) + \frac{h^2}{2} f'(x_{*n}) f(x_{*n}). \qquad (2.5)$$

Endi yaqinlashtiruvchi (2.5)-formula o‘rniga quyidagi rekurrent formulani ko‘rib chiqamiz:

$$x_0 = \xi,\; x_{n+1} = x_n + hf(x_n) + \frac{h^2}{2} f'(x_n) f(x_n). \qquad (2.6)$$

Hisoblash matematikasida aynan shu (2.6)-formula bilan ishlanadi va ko‘pincha x_n va x_{*n} bir xil miqdor deb qaraladi. Biroq, aslida bu to‘g‘ri emas. Shu sababli hisoblash dinamikasi nuqtai nazaridan “muqaddas” deyish mumkin bo‘lgan savol yuzaga keladi: x_n ketma-ketligining $x_*(nh)$ aniq yechim qiymatiga qanday aloqasi bor?

Bizningcha, hisoblash dinamikasida ba’zan yetarli asoslarsiz holda, x_n qiymatlari asosida aniq yechim $x_*(t)$ ning xatti-harakatlari haqida uzoqni ko‘zlovchi xulosalar qilinadi — ayniqsa, Lorens, Ryossler, “bryusselator”, ko‘p jismli harakat masalalari kabi murakkab sistemalarda. Aslida esa vaziyat ancha murakkab. Eng avvalo, yuqorida keltirilgan Faraz A, shuningdek quyida bayon qilinadigan farazlar bajarilishini tekshirish zarur. Yana bir bor ta’kidlash joizki, amaliy qo‘llanmalar uchun evristik xulosa yoki umumiy mulohazalar yetarli bo‘lishi mumkin, ammo dinamik sistemalar nazariyasidagi teoremalarni isbotlash uchun esa quyidagi kabi aniq, matematik isbotlangan baholash talab qilinadi:

$$\left|x_*(nh) - x_n\right| \le C(f, T, K, \xi) h^2,$$

bu yerda C — funksiyaning xossalari, vaqt oralig‘i T, K kompakt to‘plam va boshlang‘ich shart ξ ga bog‘liq bo‘lgan doimiydir.

Asosiy maqsadi — ko‘rib chiqilayotgan usul uchun yuqoridagi kabi baholashning matematik isbotida mavjud bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirishdir. Shu bilan birga $m > 1$ bo‘lgan holatda (ya’ni Teylor formulasi orqali yuqori tartibli yaqinlashishda), (2.1) differensial tenglama uchun $\left|x_*(nh) - x_n\right|$ farqini baholovchi ifoda, Teylor formulasi qoldiq hadi asosida olingan baholashdan farq qilishini ko‘rsatib o‘tamiz**.**

Demak, endi bizni $x_*(nh) - x_n$ ayirmani baholash masalasi qiziqtiradi.

Bunda t vaqtga bog‘liq bo‘lmagan baholash olish uchun, yechimga yana bir qo‘shimcha shart qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun funksiyaning aniqlanish sohasi $D \subset \mathbb{R}^d$ ichida joylashgan, aniq yechimning $\left\{x_*(t) \middle| 0 \le t \le T\right\}$ yoyini va uning ma’lum bir sohasini o‘z ichiga oluvchi aniq kompakt K to‘plamni tanlash zarur bo‘ladi. Bu oson ish emas, chunki aniq yechim $x_*(t)$ bizga oldindan ma’lum emas. Shu sababdan biz quyidagi farazni qabul qilamiz:

Faraz B. $\left[0, T\right]$ oraliqda berilgan $x_*(t)$ aniq yechim K kompakt to‘plamdan chiqib ketmaydi (ya’ni, shu to‘plam ichida qoladi).

Bunday kompakt to‘plamni tanlash quyidagi qiymatlarni belgilash imkonini beradi:

$$M_0=\max_{x\in K}\left|f(x)\right|,\quad M_1=\max_{x\in K}\left\|f'(x)\right\|,\quad M_2=\max_{x\in K}\left\|f''(x)\right\|,...$$

va so‘ngra A va B farazlardan foydalanib, yaqinlashgan yechimning xatosi uchun aniq baho chiqariladi. Ushbu masalaga bag‘ishlangan nashrlarda quyidagi baholash ko‘rinishidagi tengsizlik keltiriladi:

$$\left|x_*(nh)-x_n\right|\le C\left(\frac{e^{M_1T}-1}{M_1}\right)\frac{h^2}{6}, \tag{2.7}$$

bu esa Teylor formulasi qoldiq hadining bahosiga tayanadi. (2.7)-tengsizlikning mutlaqo asosli va nuqsonsiz isboti aniqlanmadi. Quyida bu holatning sababi bayon etiladi hamda (2.7)-tengsizlikdan boshqa bir tengsizlikning qat’iy isboti keltiriladi.

1-lemma. $\tilde{x}(nh)=x_n$ tenglik barcha $n>0$ uchun o‘rinli.

1-ta’rif. Ushbu

$$\tilde{x}(t)=x_0+\int_0^t\left\{f\left[x(\sigma_s)\right]+(s-\sigma_s)f'\left[x(\sigma_s)\right]f\left[x(\sigma_s)\right]\right\}ds$$

funksiya (2.1) masalaning taqribiy yechimi deyiladi.

Bu yerda $\sigma(t)$ pog‘onali funksiya bo‘lib, quyida uning xossalarini keltiramiz:

1. $nh\le\sigma(t)<(n+1)h,$ bu yerda $n=\left\lfloor\frac{t}{h}\right\rfloor$ (ushbu xossa ta’rifga ekvivalentdir);
2. $\sigma(\sigma(t))=\sigma(t);$
3. agar $t\le s<t+h,$ bo‘lsa, unda $\sigma(s)=\sigma(t).$

Faraz C. $\tilde{x}(t)\in K,$ bunda $t\in\left[0,T\right].$

2-teorema. Agar A, B va C farazlar bajarilgan bo‘lsa, u holda (2.1)-masalaning aniq yechimi bilan taqribiy yechimi orasida quyidagi baho o‘rinli:

$$\left|x_*(t)-\tilde{x}(t)\right|\le\frac{e^{M_1T}-1}{M_1}\left(L_0+L_1h\right)\frac{h^2}{2}.$$

2-ta’rif. Ushbu

$$\tilde{x}(t)=x_0+$$
$$+\int_0^t\left\{f\left[\tilde{x}(\sigma_s)\right]+(s-\sigma_s)(f'f)\left[\tilde{x}(\sigma_s)\right]+\frac{(s-\sigma_s)^2}{2}(f''ff+f'f'f)\left[\tilde{x}(\sigma_s)\right]\right\}ds$$

funksiya (2.1) masalaning taqribiy yechimi deyiladi.

3-teorema. Aniq va taqribiy yechim orasidagi farq uchun

$$\left|x_*(t)-\tilde{x}(t)\right|\le\frac{e^{M_1T}-1}{6M_1}(L_0+L_1h+L_2h^2)h^3$$

tengsizlik o‘rinli.

3-ta’rif. Ushbu

$$\tilde{x}(t) = x_0 + \int_0^t \sum_{k=0}^{3} \frac{(s-\sigma_s)^k}{k!} F^k[\tilde{x}(\sigma_s)]ds$$

funksiya (2.1) masalaning taqribiy yechimi deyiladi.(bu yerda $x^{(k)}(t) = (F^k)[x_*(t)]$)

4-teorema. Ushbu $|x_*(t) - \tilde{x}(t)| \le Ch^4 \dfrac{e^{M_1 T} - 1}{M_1}$ tengsizlik o‘rinli, bunda

$$C = L_3 + L_{2,3} + L_{1,2,3} + H^1{}_{1,2,3} + H^2{}_{0,1,2,3} + H^3{}_{0,1,2,3} + H^4{}_{0,1,2,3} + H^5{}_{0,1,2,3}.$$

Dissertatsiyaning “**Teylor formulasi orqali hosil qilingan taqribiy yechimning xatoligini avtonom bo‘lmagan sistemalar uchun baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida noavtonom sistema uchun Koshi masalasini Teylor formulasiga asoslangan ikkinchi va uchinchi tartibli taqribiy yechish usulining aniqligini baholash masalasi ko‘rib o‘tilgan.

Differensial tenglamalar nazariyasining bir qator boblarida, ayniqsa, tatbiqlarida

$$y' = f(x, y), \; y(x_0) = y_0, \tag{3.1}$$

Koshi masalasining taqribiy yechimini hisoblashga to‘g‘ri keladi. (3.1) masalada $y \in D \subset \mathbb{R}^d$, D – qavariq soha, $f: D \to \mathbb{R}^d$ uzluksiz va yetarlicha differensiallanuvchi funksiya. Agar $y_*(x)$ (3.1) masalaning aniq yechimi, $y(x)$ taqribiy yechimi bo‘lsa $(x_0 \le x \le x_*)$, u holda taqribiy yechim aniqligi

$$\sup_{x_0 \le x \le x_*} |y_*(x) - y(x)| \le Ce^{L(x-x_0)} h^s \tag{3.2}$$

ko‘rinishdagi tengsizlik tarzida ifodalanadi (L – Lipshits konstantasi, h – taqribiy yechim qiymatlari hisoblanadigan oraliqning eng katta qadami, s – taqribiy yechish usulining aniqlik darajasi,)

4-ta’rif. Ushbu

$$y(x) = y_0 + \int_{x_0}^{x} \{ f[\delta_s, y(\delta_s)] + (s-\delta_s)\Big(f'_y[\delta_s, y(\delta_s)] f[\delta_s, y(\delta_s)] + f'_x[\delta_s, y(\delta_s)]\Big)\} ds$$

funksiya (3.1) masalaning taqribiy yechimi deyiladi.

5-teorema. Aniq va taqribiy yechim orasidagi farq uchun

$$|y_*(x) - y(x)| \le \frac{e^{L(x-x_0)} - 1}{L}(L_1 + L_2 h)h^2$$

baho o‘rinli.

6-teorema. Aniq va taqribiy yechim orasidagi farq uchun

$$|y_*(x) - y(x)| \le \frac{e^{M_{01}(x-x_0)} - 1}{M_{01}}(L_0 + L_1 h + L_2 h^2)h^3$$

baho o‘rinli.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishi dinamik sistemalar trayektoriyalarini taqribiy hisoblash aniqligini baholovchi tengsizliklarga bag‘ishlangan. Dissertatsiyaning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

Liuvill tenglamasi yechimining hosilasi uchun rekurrent ifoda qurilgan. Bu ifodani keltirib chiqarishda polinomial uchburch qo‘llangan;

avtonom differensial tenglamalar sistemalari uchun Teylor formulasiga asoslangan ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi tartibli taqribiy yechish usullarida xatolikni baholovchi tengsizliklarning qat’iy isboti keltirilgan. Ushbu tengsizliklardagi koeffitsientning qiymatlari oshkor holda aniqlangan;

avtonom bo‘lmagan differensial tenglamalar sistemalari uchun Teylor formulasiga asoslangan ikkinchi va uchinchi tartibli taqribiy yechish usullarida xatolikni baholovchi tengsizliklarning qat’iy isboti keltirilgan va tengsizliklardagi koeffitsientning qiymatlari oshkor holda aniqlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

ABDULLAYEV ABDUGANI KHOLMAMAT O‘G‘LI

INEQUALITIES FOR ESTIMATING THE ACCURACY OF APPROXIMATE COMPUTATION OF TRAJECTORIES OF DYNAMICAL SYSTEMS

01.01.02-Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2025.2.PhD/FM1285

Dissertation has been prepared at V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (summary)) on the http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Abdulla Azamov** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Akademician
Official opponents:	**Jamilov Uygun Umurovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, senior researcher
	Akhmedov Odiljon Sohibjonovich Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Dotsent
Leading organization:	**National Pedagogical University of Uzbekistan**

Defense will take place «09» december at 17:00 the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40, e-mail : uzbmath@umail.uz, Website : www.mathinst. uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre of V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics (is registered № 216) (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40).

Abstract of dissertation sent out on «25 » November 2025 year
(mailing report № 2 on « 25 » November 2025 year)

U.A. Roziqov
Chairman of Scientific Council on award of scientific degrees, D.F.M.S., Academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council on award of scientific degrees, D.F.M.S., Senior researcher

R.R. Ashurov
Deputy Chairman of Scientific Seminar under Scientific Council on award of scientific degrees, D.F.M.S., Professor

INTRODUCTION (Annotation to the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Actuality and demand of the theme of the dissertation. A number of scientific and practical tasks conducted worldwide in the field of mathematics is dedicated to the study of dynamical systems theory. The diversity of problems in dynamical systems, the frequent encounter with highly complex and profound challenges, and the need to employ methods not only from the theory of differential equations but also from geometry, topology, functional analysis, and computer technologies all contribute to this focus. Moreover, applications of mathematics to other sciences and engineering are typically carried out through modeling by means of dynamical systems. For this reason, dynamical systems and their applications are studied in hundreds of research centers around the world, and numerous scientific journals dedicated specifically to this field are published.

Currently, in the field of computer technologies is witnessing extensive research on dynamical systems theory and its applications to practical problems. The primary object of study in dynamical systems theory is systems and processes whose states evolve over time. In today's era of scientific and technological advancement, computer technologies play a crucial role in solving problems related to dynamical systems; indeed, a separate discipline—computational dynamics-has emerged and is rapidly developing. Therefore, research in this area is regarded as a purposeful and significant scientific endeavor.

In recent years, special attention has been paid in our country to the development of science and technology, particularly natural and exact sciences. Considerable progress has been made in improving mathematics education, elevating fundamental research in the sciences to a higher level, integrating research outcomes with practical applications, and establishing their relevance in related scientific fields and various sectors of the economy. In particular, conducting scientific research in such priority areas as differential equations and mathematical physics, dynamical systems theory, algebra and functional analysis, probability theory and mathematical statistics, applied mathematics, and mathematical modeling has been defined as one of the main directions and tasks of the V. I. Romanovskiy Institute of Mathematics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan[1].

The topic and object of study of this dissertation fully correspond to the priority tasks outlined in several official documents of the President of the Republic of Uzbekistan, including Presidential Decree No. PF-4947 of February 7, 2017, "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan," Presidential Decree No. PF-60 of January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026," Resolution No. PQ-2789 of February 17, 2017, "On Measures to Further Improve the Activities of the

[1]Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 9, 2019 № PQ-4387 "On state support for the further development of mathematics education and subjects, as well as measures to fundamentally improve the activities of the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan".

